“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDAGI HIKOYATLARNI O‘QITISHDA KOMIKSLARNING AHAMIYATI

Gulnora Umarova
Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti
tayanch doktorant
OrcID: 0009-0001-6943-3993

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibida kelgan ayrim hikoyatlarni o‘qitishda komikslardan foydalanishning ahamiyati haqida so‘z boradi. Komikslashgan hikoyatlar bilan axloqiy mavzular o‘quvchilarga yanada oson va qiziqarliroq tushuntiriladi.
Kalit so‘zlar: “Hayrat ul-abror”, komiks, hikoyat, metod, “Sher bilan durroj”, ta’lim.
Abstract: This article talks about the importance of using comics in teaching some of the stories included in Alisher Navoiy’s “Hayrat ul-abror”. Moral topics are explained more easily and interestingly to the students with comics stories.
Key words: “Hayrat ul-abror”, comics, story, method, “Lion with peacock”, education.
Аннотация: В данной статье говорится о важности использования комиксов при обучении некоторым историям саги Алишера Навои «Хайрат уль-Аброр». Моральные темы легче и интереснее объясняются учащимся с помощью шуточных рассказов.
Ключевые слова: «Хайрат уль-Аброр», комикс, рассказ, «Лев и фазан», метод, образование.

KIRISH. “Hayrat ul-abror” dostonining ahamiyati, ilmiy va adabiy qiymati, uning tarixiy va madaniy o‘rni adabiyot uchun ham, yoshlar tarbiyasi uchun ham juda katta. Doston tarkibida kelgan hikoyatlar jamiyat a’zolari uchun foydali saboqlar bera olishi, shubhasiz. Navoiy asarlarini o‘qish kerak, degan xitoblarni ko‘p eshitib qolamiz, ammo shuncha harakat, shuncha tashviqot va targ‘ibot ishlariga qaramay Navoiyni kam o‘qiyotganimiz achinarli holat. Ammo bunda kitobxonni ham ayblay olmaymiz. Shunday ekan bunga qanday yechim berish mumkin? Albatta, zamonaviy yondashuv va texnologiyalar asosida yoshlarni Navoiyga bo‘lgan qiziqishini uyg‘otish, Navoiyni yaxshiroq tanitish mumkin. Adabiy asarlar nafaqat o‘quvchilarni estetik jihatdan boyitadi, balki ularning fikrlashini, axloqiy qarashlarini va ijtimoiy mas’uliyatini shakllantiradi. Ammo, o‘quvchilarni

ISSN 3030-3907

an’anaviy usullar bilan dostonlar va hikoyatlarni o‘qishga qiziqtirish ba’zan qiyin bo‘lishi mumkin. Bu muammoning yechimi sifatida komiks kabi vizual o‘qitish usullarini kiritish o‘quvchilarga matnlarni tushunishda yordam bera oladi. Biz ushbu maqolada Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostoni tarkibida kelgan ayrim hikoyatlarni komiks ko‘rinishida o‘qitishning afzalliklari haqida so‘z yuritamiz. Bu usul ancha samarali va aynan komikslashgan hikoyatlar yoshlarni qiziqtirishi turgan gap. Dastlab, komiks tushunchaga to‘xtalib o‘tamiz.

Komiks o‘zi nima? Komiks (inglizcha: comic - komediyaga doir) aniq bir voqeani rasm va matn orqali hikoya qiluvchi, uzviy ketma-ketlikda bog‘langan rasmlar jamlanmasidir. Komikslar turli formatda bo‘ladi:

- qisqa chiziq romanlar (striplar),
- jurnallar yoki hatto to‘liq kitob shaklida (grafik romanlar).


Komikslar superqahramonlik, fantastika, detektiv, ilmiy-tarbiyaviy, sarguzasht mavzularda bo‘lishi mumkin. Komiks vizual va matnni birlashtirgan shakldagi adabiyotdir, bu esa o‘quvchining e’tiborini jalb qilishda samarali usul bo‘lib, hikoyatlarni soddalashtiradi.

Ta’lim tizimida hikoyatlarning komikslashtirilgan variantidan foydalanib dars o‘tish quyidagi afzalliklarga ega:

1. Komikslar matn va rasm orqali birgalikda ishlashni ta’minlaydi, bu esa o‘quvchilarning yodda saqlash qobiliyatini oshiradi.
2. Hikoyatni turli rasmlar orqali berish o‘quvchida qiziqish uyg‘otadi va tasavvur olamini kengaytiradi.
3. Hikoyatlarni tushunishni osonlashtirish, ya’ni “Hayrat ul-abror” dostonidagi qiyin tushunchalar va voqealar komikslar orqali soddalashtiriladi.
4. Komikslarning adabiy asarlarga nisbatan yengilligi va ma’lumotlarni qisqacha va aniq tarzda taqdim etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI. Bugungi kunda rivojlangan mamlakatlarda ham ta’lim sohasida komikslardan foydalanilmoqda. Chet elda komikslardan ta’limda foydalanish turli usullar bilan amalga oshiriladi:

1. AQSh – Ko‘plab maktablarda komikslar o‘quv materialiga kiritilgan. Masalan, “Maus” yoki “Persepolis” kabi grafik romanlar adabiyot darslarida muhokama qilinadi.



ISSN 3030-3907

1-rasm. “Maus” va “Persepolis” grafik romanlar.

Adabiyot darslaridan tashqari, fizika, matematika va biologiya kabi fanlarda tushuntirishni yengillashtirish uchun ilmiy komikslar ishlatiladi. “Comics in Education” (“Ta’limda komikslar”) kabi loyihalar esa o‘qituvchilarga komikslar yordamida o‘quv jarayonini qiziqarli qilish yo‘llarini o‘rgatadi.

2. Yaponiya – Manga (Yapon komiksi shunday nomlanadi.) Yaponiyada nafaqat ko‘ngilochar maqsadda, balki o‘quv material sifatida ham keng qo‘llaniladi. Tarix, fan va texnologiya bo‘yicha maxsus mangalar chop etiladi. Bundan tashqari, manga chet ellik talabalar uchun yapon tilini o‘rganish vositasi sifatida ishlatiladi.

3. Fransiya – Fransiyada komikslar san’at va madaniyatning muhim qismi bo‘lib, maktablarda grafik hikoyalar yordamida tarix, adabiyot va siyosat o‘qitiladi. Ta’lim uchun mos komikslar tayyorlashda hukumat va nashriyotlar hamkorlik qiladi.

4. Germaniya – Til va adabiyot darslarida talabalarga tushunarli va qiziqarli bo‘lishi uchun komikslar nutq va tafakkurni rivojlantirish vositasi sifatida qo‘llanadi. Bundan tashqari, nemis tilini o‘rgatish uchun oddiy tilda yozilgan grafik hikoyalar keng ishlatiladi.

5. Janubiy Koreya – Webtoon (onlayn komikslar) orqali fanlarni o‘rgatish ommalashgan. Xususan, tarix va texnologiya bo‘yicha maxsus komikslar ishlab chiqilgan. Xatto talabalar o‘z hikoyalari asosida komikslar chizishga undaladi, bu esa ijodkorlik va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Dunyoning turli mamlakatlarida komikslar ta’lim vositasi sifatida foydalaniladi. Ular:

- ✓ Qiyin tushunchalarni soddalashtirish;
- ✓ Talabalarni o‘qishga qiziqtirish;
- ✓ Til va madaniyat o‘rganishga yordam berish kabi maqsadlar uchun ishlatiladi.

Komikslar nafaqat bolalar, balki kattalar uchun ham o‘qish jarayonini qiziqarli va samarali qilishi mumkin. Komikslarning asosiy afzalligi shundaki, ular matnni vizual tasvirlar bilan birlashtiradi, bu esa o‘quvchilarga voqealarni nafaqat o‘qish, balki ko‘rish imkonini ham beradi. Vizual tasvirlar nafaqat matnni tushunishga yordam beradi, balki o‘quvchilarga voqealarning muhim tafsilotlarini eslab qolish va voqeani kengroq anglash imkoniyatini yaratadi. Komikslar orqali o‘qitish, ayniqsa, yosh avlod uchun juda foydali bo‘lishi mumkin, chunki ular rang-barang rasm va qisqa matnlar yordamida tezda qiziqish hosil qiladilar. Bu o‘quvchilarni uzoq va zerikarli matnlarga bo‘lgan nisbatan qarshiliklarini kamaytirishga yordam

ISSN 3030-3907

beradi. Shuningdek, komikslar o‘quvchilarga ijodiy fikrlash va yangi m’lumotlarni o‘zlashtirishda yordam beradi.

“Hayrat ul-abror”dagi hikoyatlarni komikslar orqali o‘qitishning afzalliklari:

1. “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarni komikslar yordamida taqdim etish o‘quvchilarga yangi va qiziqarli shaklda yetkazish imkonini beradi. O‘quvchilar komiksning vizual komponentlariga qiziqish bilan yondashadilar va bu orqali dostonning asosiy g‘oyalarini osonroq anglashadi.

2. Tushunishni osonlashtirish.

“Hayrat ul-abror” kabi murakkab asarlarni tushunish ba’zida o‘quvchilarga qiyin bo‘lishi mumkin, chunki unda ko‘plab axloqiy, tarixiy va madaniy qatlamlar mavjud. Komikslar yordamida bu tushunchalarni soddalashtirish mumkin. Har bir sahnada ko‘rsatilgan rasm voqea va hissiyotlarni yanada aniqroq tushuntiradi. Misol uchun, hikoyat qahramonlarining ichki kurashlari, ularning his-tuyg‘ulari va qaror qabul qilish jarayonlari komiksning vizual uslubi orqali yanada to‘liq va chuqur ko‘rsatilishi mumkin.

3. Ma’naviy saboqlarni osonlik bilan qabul qilish.

Dostonning ma’naviy saboqlari ko‘pincha qiyin va murakkab tushunchalarga asoslanadi. Komikslar orqali esa, bu saboqlar ko‘rsatilgan sahnalar va qahramonlar orqali aniq va tushunarli tarzda o‘quvchilarga yetkazilishi mumkin. Qahramonlarning harakatlari va tanlovlari o‘quvchilarga o‘z hayotlarida ham axloqiy qarorlar qabul qilishda yordam beradi.

4. Vizual yondashuv va interaktiv o‘qitish.

Komikslar nafaqat matn va rasmni birlashtiradi, balki interaktiv elementlar ham qo‘shilishi mumkin. Misol uchun, o‘quvchilarni muayyan voqealarni boshqarish va dostonning ma’lum bir qismiga o‘zgartirishlar kiritish orqali o‘qitish mumkin. Bu o‘quvchilarni hikoyaning rivojiga yanada ko‘proq jalb etadi va ular o‘rgangan narsalarni hayotga tadbiq etishda faol ishtirok etishga undaydi.

“Hayrat ul-abror” dostoni tarkibida kelgan quyidagi hikoyatlarni komikslashtirib o‘qitish ancha samarali bo‘lishi mumkin:

1. “Boyazid Bistomiy” hikoyati;
2. “Ibrohim Adham va Robiya” hikoyati;
3. “Shoh G‘oziy” hikoyati;
4. “Xoja Abdulloh Ansoriy” hikoyati;
5. “Hotami Toy” hikoyati;
6. “Qanoatli va qanoatsiz hikoyati”
7. “Ikki vafodor do‘st qismati” hikoyati;

ISSN 3030-3907

8. “Sher bilan durroj” hikoyati;
9. “Imom Faxr Roziy va Sulton Muhammad Xorazmiy” hikoyati;
10. “Yoqut” hikoyati;
11. “Ayyub va o‘g‘ri” hikoyati;
12. “Iskandarning vafoti” hikoyati;
13. “Rindi Bani Isroili” hikoyati;
14. “Abduloh Muborak va Hasan Rabe” hikoyati;
15. “Zaynul-Obidinning qizi” hikoyati;
16. “Bahrom” hikoyati;
17. “Oliyjanob shoh va qul” hikoyati kabilar.

Bu hikoyatlarni komikslashtirganda barcha yoshdagilar uchun birdek qiziqarli manba bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Komikslarning vizual va matnli unsurlari hikoyatlarni yanada jonlantiradi, o‘quvchilar esa voqealarni yaxshiroq tushunib, qahramonlarning ruhiy holatini aniqlashda yordam beradigan tasvirlar orqali holatni ko‘z oldilariga keltirishadi.

Komikslar vizual tasvirlarni matn bilan uyg‘unlashtirish orqali o‘quvchilarga nafaqat ma’lumotlarni o‘zlashtirish, balki bu ma’lumotlar bilan bog‘liq savollarni ham muhokama qilish imkoniyatini beradi. Interaktiv komikslar – bu o‘quvchilarga nafaqat voqeani kuzatish, balki unga o‘z fikrlarini qo‘shish imkoniyatini yaratadigan yondashuvdir. “Hayrat ul-abror” dostonidagi axloqiy va falsafiy masalalarni interaktiv komikslar orqali o‘rgatish, o‘quvchilarning fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Masalan, komiksda hikoyatdagi muhim qahramonlardan birining muammosini ko‘rsatish mumkin. O‘quvchi ushbu sahnaga o‘zgartirishlar kiritish orqali, ya’ni, qahramonlarning tanlovlarini o‘zgartirish orqali, uning boshqacha qanday natijalarga olib kelishi mumkinligini tasavvur qiladi. Bu jarayon orqali o‘quvchi faqatgina qahramonning qarorlarini kuzatib qolmaydi, balki o‘zi ham bu qarorlarning oqibatlarini tahlil qiladi va hayotiy saboqlarni o‘rgatadi.

Komikslar o‘quvchilarni faqat bitta axborot manbai bilan cheklamagan holda, turli tarmoqlarda o‘qishga undaydi. “Hayrat ul-abror” dostonining ko‘p qirrali mazmunini komikslar yordamida o‘rgatishda o‘quvchilar nafaqat matn bilan, balki rasm, musiqalar, animatsiya va boshqa media vositalari bilan ham ishlashlari mumkin. Misol uchun, dostonning muhim voqealarini komiks tarzida ifodalash orqali o‘quvchi matnni o‘qish bilan birga, voqealar rivojining qanday bo‘lishi mumkinligini tasavvur qilib, o‘z ijodiy tafakkurini rivojlantiradi. Bu jarayon o‘quvchilarga faqatgina bir xil shaklda emas, balki bir nechta shaklda ma’lumotlarni qabul qilish imkoniyatini beradi. Komiksda bo‘ladigan tasvirlar o‘quvchining

ISSN 3030-3907

emotsional tajribasini boyitadi. Shunday qilib, ko‘p tarmoqli o‘qitish orqali o‘quvchilar nafaqat adabiyot haqida bilib olishadi, balki ularning ijodiy va hissiy qobiliyatlari ham rivojlanadi.

“Hayrat ul-abror” dostonidagi voqealar tarixiy va madaniy jihatdan katta ahamiyatga ega. O‘quvchilarga dostonning tarixiy kontekstini tushuntirishda, komikslarning yordami katta bo‘lishi mumkin. Komikslar yordamida dostonning o‘tmishdagi ijtimoiy va madaniy sharoitlarini tasvirlash o‘quvchilarga yanada aniqroq tasavvur beradi. Misol uchun, dostonning muhim voqealarini tarixiy manzaralar va an’anaviy kiyimlarda ko‘rsatish orqali o‘quvchilar o‘z davrining ijtimoiy tizimi va madaniyatiga oid bilimlarni yanada yaxshiroq tushunadilar. Bundan tashqari, dostonning axloqiy va ma’naviy qadriyatlari ham o‘quvchilarga vizual yordam bilan yetkaziladi. Komiks orqali hikoyatlardagi qahramonlarning axloqiy tanlovlari va qarorlarini ko‘rsatish o‘quvchiga bu qadriyatlarni tasavvur qilishda va o‘zgartirishda yordam beradi. Bu o‘quvchilarni fikrlashga, tahlil qilishga va turli qarorlarning oqibatlarini tushunishga undaydi.

Komikslarni ta’lim jarayoniga qo‘shish faqatgina yangi usulni joriy etish emas, balki an’anaviy o‘qitish metodlariga yangi metodik yondashuvlarni qo‘shish imkoniyatini yaratadi. “Hayrat ul-abror” dostonini o‘rgatishda komikslarning qo‘llanilishi orqali o‘qituvchilar yangi pedagogik yondashuvlarni amalga oshiradilar. Bu o‘z navbatida o‘quvchilarning mavzuni tushunish va uning muhim jihatlarini eslab qolish qobiliyatini oshiradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Komikslar yordamida o‘qitishda metodik yondashuvlar quyidagi asosiy bosqichlardan iborat bo‘lishi mumkin:

1. **Tayyorlov bosqichi:** O‘qituvchi o‘quvchilarga dostonning qisqacha mazmuni haqida ma’lumot beradi va hikoyaning muhim voqealarini tanishtiradi. Bu bosqichda o‘quvchilarga dostonning asosiy qahramonlari va ularning muammolariga oid qisqacha tasvirlar va komikslar ko‘rsatiladi. Buni **“Sher bilan durroj”** hikoyati misolida ko‘rib chiqamiz.

“Sher va durroj do‘st edi. Durroj ko‘p yolg‘on gapirardi. Sher durrojga yolg‘on so‘zlash noto‘g‘ri ekanligini aytib bir necha marta ogohlantirdi. Ammo durroj quloq solmadi. Bir kuni durroj qopqonga tushdi va do‘stini yordamga chaqirdi. Sher uni yana yolg‘on so‘zlayapti deb o‘ylab qutqargani bormadi.

ISSN 3030-3907



2. **Asosiy bosqich:** O‘quvchilar komiks yordamida dostonning voqealarini kuzatib boradilar. Bu bosqichda o‘quvchilar komiksda keltirilgan ma’lumotlarni o‘zlashtiradilar, dostonning muhim masalalari haqida munozara qilishadi.

3. **Tahlil bosqichi:** O‘quvchilar dostonning ma’naviy jihatlarini tahlil qilish uchun komiksning ayrim sahnalarini qayta ko‘rib chiqadilar. Bu bosqichda o‘quvchilar qahramonlarning tanlovlarini baholaydilar va ularning oqibatlarini tahlil qiladilar. Masalan, yolg‘on gapirish salbiy illat ekanligi, durroj qafasga nega tushub qolganligi kabilar.

4. **Yakuniy bosqich:** O‘quvchilar o‘rganilgan dostonni va uning axloqiy, ijtimoiy maqsadlarini o‘z hayotlariga tadbiq etishga harakat qiladilar.

Komikslar orqali o‘qitish nafaqat amaliy jihatdan samarali, balki ilmiy nuqtai nazardan ham asoslangan. Psixologiya va pedagogika ilmiy tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, vizual materiallar odamlarning ongiga tezda kirib boradi. O‘quvchilarning miyasining vizual qismi ko‘proq ishlashini inobatga olgan holda, komikslar orqali o‘qitish samaradorligi ortadi. O‘quvchilar vizual tasvirlarni yanada tez va oson qabul qilishadi, bu esa ularning dostonning mazmunini tushunishini osonlashtiradi. Pedagogik jihatdan, komikslar o‘qitishda faqatgina o‘quvchilarni qiziqtirib qolmay, balki ularning mavzu bo‘yicha fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini



ham rivojlantiradi. Bu yondashuvning samaradorligi nafaqat yosh o‘quvchilar, balki kattalar uchun ham o‘xshash tarzda ishlaydi. O‘quvchilar komikslar orqali taqdim etilgan voqealarni nafaqat o‘qiydilar, balki ularni tahlil qilib, o‘z fikrlarini ham bildiradilar. Bu esa ularning fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi.

“Hayrat ul-abror” dostonini komikslar orqali o‘rgatish, o‘quvchilarga nafaqat bu asar haqida bilib olish, balki uning mazmunini yanada chuqurroq tushunish imkoniyatini beradi. Komikslar yordamida o‘qitish, dostonning axloqiy saboqlarini o‘quvchilarga oson va tushunarli tarzda yetkazishga yordam beradi. Shuningdek, komikslar nafaqat vizual taqdimot, balki interaktivlik va ko‘p tarmoqli o‘qitish imkoniyatlarini ham taqdim etadi.

ISSN 3030-3907

Komikslar o‘quvchilarni nafaqat qiziqtirib, balki ularning ijodiy va hissiy rivojlanishiga yordam beradi. O‘qitishda komikslar yordamida ma’naviy, axloqiy va tarixiy qadriyatlarni o‘rgatish mumkin. Komikslar o‘zining vizual ifoda shakli bilan dunyoning har xil madaniyatlarida keng tarqalgan va qabul qilingan san’at shaklidir. O‘quvchilarga nafaqat voqeani tushuntiradi, balki ular o‘z madaniyati va tarixiga ham ko‘proq e’tibor qaratadilar. “Hayrat ul-abror” dostonining madaniy jihatlarini komikslar yordamida o‘qitish orqali o‘quvchilarni madaniy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Masalan, komiksda dostonning tarixiy voqealari va madaniy ramzlari aniq ko‘rsatiladi, bu esa o‘quvchilarga o‘sha davrning ijtimoiy hayoti va madaniyatini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Komikslar o‘qitishda ko‘p jihatdan ta’lim samaradorligini oshiradi. Bu nafaqat o‘quvchilarga tushunarli shaklda ma’lumotlarni yetkazish, balki ularni qiziqtirish va o‘rganishga bo‘lgan istaklarini kuchaytiradi. O‘quvchilar komiksni yaratishda o‘z fikrlarini mustaqil ravishda ifodalashga, yangi g‘oyalar ishlab chiqishga va o‘zlarini san’at shaklida ifoda etishga harakat qiladilar. Bu jarayon o‘quvchilarda tasavvurni kengaytiradi va ijodiy yondashuvni rag‘batlantiradi. Bunday faoliyat, o‘quvchilarga dostonning ma’naviy va axloqiy saboqlarini o‘z hayotlarida qo‘llashni o‘rgatadi. Komikslar o‘quvchilarni faqat dostonni o‘qishga, balki uni tahlil qilish, muhokama qilish va o‘z hayotiga tadbiq qilishga ham undaydi. Shuningdek, bu usul, adabiyot va ta’limni yangicha va samarali tarzda taqdim etish imkoniyatini yaratadi. Komikslar yordamida o‘rgatish ta’lim jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli va interaktiv qilishga yordam beradi.

Komikslarning ta’limdagi samaradorligini o‘rganish bo‘yicha tadqiqotlar mavjud, Quyida ularning ayrimlarini ko‘rib o‘tamiz:

“The Effectiveness of Using Comics in Education: A Meta-Analysis”[1]: Bu tadqiqot komikslarning ta’limda qo‘llanilishini o‘rganib, ularning o‘quvchilarning motivatsiyasi va o‘rganish samaradorligini oshirishda samarali ekanligini ko‘rsatdi.

“Comics Use in Education: A Review Study: Ushbu ish komikslarning ta’limda qo‘llanilishi bo‘yicha mavjud tadqiqotlarni tahlil qilib, ularning o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va materialni yaxshiroq eslab qolishlariga yordam berishini ta’kidladi[2].

Vizual o‘rganish: Komikslar o‘quvchilarga murakkab g‘oyalarni soddalashtirish va vizual tarzda taqdim etish imkonini beradi. Bu usul o‘quvchilarning diqqatini jalb qilish va materialni yaxshiroq eslab qolishlariga yordam beradi.

ISSN 3030-3907

Madaniy o‘rganish: Komikslar turli madaniyatlarni o‘rganishda samarali vosita bo‘lishi mumkin. Ular o‘quvchilarga boshqa xalqlarning qadriyatlari, urf-odatlari va tarixiy voqealari bilan tanishish imkonini yaratadi.

Ijodiy fikrlash: Komikslarni yaratish va tahlil qilish o‘quvchilarda ijodiy fikrlash va muammoni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Xulosa qilib aytganda, komikslar yordamida adabiyot o‘qitishda o‘quvchilarni nafaqat matnni o‘qishga, balki uni tushunishga ham o‘rgatish mumkin. “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarni komikslar orqali o‘rgatish, o‘quvchilarga murakkab axloqiy masalalarni ko‘rsatilgan rasmlar orqali tushuntiradi. Masalan, qahramonning ichki kurashlari, uning tanlovlari va natijalari komiksda yoritiladi va o‘quvchilar bu holatni vizual ravishda tasavvur qilishlari oson bo‘ladi. “Hayrat ul-abror”ni komikslar orqali o‘qitishning afzalliklari juda ko‘p. Komikslar yordamida dostonni o‘rgatish o‘quvchilarga nafaqat voqealarni yengil va tushunarli tarzda etkazish imkonini beradi, balki ularni hayotiy axloqiy qarorlar qabul qilishda o‘rgatadi. Vizual o‘qitish usuli o‘quvchilarga nafaqat matnni yodlash, balki uning chuqur mazmunini anglashda yordam beradi. “Hayrat ul-abror” dostonidagi hikoyatlarni komikslar yordamida o‘rgatish nafaqat ta’limni yangilash, balki o‘quvchilarga adabiyotning yuksak ma’naviy qadriyatlarini tushunishda yordam beradi. Bu metod nafaqat o‘quvchilarga dostonni o‘rgatishning samarali vositasi, balki adabiyotga bo‘lgan qiziqishni oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Alisher Navoiy. Hayrat ul-abror. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2020. – 384 b.
2. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Maus
3. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Persepolis_(comics)
4. https://www.researchgate.net/publication/375063111_The_Effectiveness_of_Using_Comics_in_Education_A_Meta-analytic_and_Meta-thematic_Analysis_Studyv
5. https://www.academia.edu/37824346/Comics_Use_in_Education_A_Review_Study

[1]https://www.researchgate.net/publication/375063111_The_Effectiveness_of_Using_Comics_in_Education_A_Meta-analytic_and_Meta-thematic_Analysis_Studyv

ISSN 3030-3907

[2]https://www.academia.edu/37824346/Comics_Use_in_Education_A_Review_Study

ISSN 3030-3907